

## 4 QADAM

Ish beruvchuni toping va u bilan mehnat shartnomasi tuzing.

Ish izlayotgan paytingiz sizga umumrossiya bo'sh ish o'rnlari bazasi «Работа в России» ([trudvsem.ru](http://trudvsem.ru)) va Sankt-Peterburfdagi bo'sh ish o'rnlari banki ([21.spb.ru](http://21.spb.ru)) dan foydalanishni maslahat beramiz.

Ko'pincha vijdonsiz ish beruvchilar chet ellik fuqarolar bilan haqiqiy bo'limgan mehnat shartnomalarini rasmiylashtirishadi uoki umuman rasmiylashtirishmaydi.

Unutmang: qonuniy mehnat shartnomasi yoki fuqarolik-huquqiy shartnoma — sizning huquqlaringiz garovi! Ish beruvchi siz bilan albatta shartnoma tuzishga va uning nusxasini berishga MAJBUR.

Mehnat shartnomalari va mehnatga joylashishga taalluqli bo'lgan boshqa hujjatlar namunalarini mazkur saytda topishingiz mumkin: [onlayninspeksiya. rf/documents](http://onlayninspeksiya. rf/documents)

## 5 QADAM

Patentning to'langan amal qilish muddati tugashidan ilgari oldindan to'lojni amalga oshiring va chekini saqlab qo'ying.

O'z vaqtida to'lov amalga oshirilmagan holatda kechiktirishning birinchi kundan boshlaboq patent amal qilishi to'xtatiladi.

Oylar hisobi hujjatda qayd etilgan ishslash uchun patent olingan sanadan boshlanadi.

To'lov oldingi to'lov amalga oshirilgan ish oyining tugashiga 1 kin qolishiga kechiktirilmasdan to'lanadi.

## 6 QADAM

Muhojirlik qaydini ishslash uchun patentga to'lov amalga oshirilgan sanaga ko'ra uzaytiring.

Patent olingach 2 oy davomida qilishingiz zarur. Ish beruvchi bilan mehnat sgartnomangiz nusxasini topshirilganiga oid bildiruv bilan buyurtma xat orqali YBM MVD RF ga yuborish yoki shartnomani shaxsan YBM ГУ MVD RFning bo'linmasiga taqdim etish, yo'qsa, patentni noqonuni deb sanashlari mumkin.

Patentning amal qilish muddati tugagach yo RFdan chiqib ketmoq, yo patentni qayta rasmiylashtirmoq zarur.

## MUHIM!

- Barcha hujjatlarni o'zingiz davlat tashkilotlarida rasmiylashtiring, vositachilarga murojaat etmang! Ular ko'pincha qalbaki hujjatlar tayyorlashadi, buning uchun sizni jarimaga tortishlari yoki Rossiyadan chiqarib yuborishlari mumkin.
- Hujjatlarni o'z vaqtida uzaytirishni unutmang. Politsiya tekshiruvini nazarda tutib ularni o'zingiz bilan olib yuring, nusxalarini tayyorlatib oling.
- Har doim imzolaydigan hujjatlariningizni o'qing. Agar siz ularning mazmuniga rozi bo'imasangiz, shartnomalarga qo'l qo'ymaslik huquqiga egasiz.
- Rossiya muhojirlik qonunlaridagi o'zgarishlarni kuzatib boring, qonularga riosa qiling!

## Foydali muloqot yo'llari:

Управление по вопросам миграции ГУ МВД России по г. Санкт-Петербургу и Ленинградской области

78.мвд.рф/ms  
8 812 573 37 22  
8 812 573 30 02

Филиал по г. Санкт-Петербургу и Ленинградской области ФГУП «Паспортно-визовый сервис» МВД РФ

8 812 703 68 78  
obr\_spb@pvsmvd.ru  
[pvsmvd.ru/branches/78](http://pvsmvd.ru/branches/78)

БФ «ПСП-фонд»  
(bepul huquqiy yordam):  
8 953 141 31 09  
8 812 337 57 85

Многофункциональные центры предоставления государственных услуг (МФЦ)

Единая справочная служба МФЦ:  
8 812 573 90 00  
Список МФЦ Санкт-Петербурга:  
[gu.spb.ru/mfc/](http://gu.spb.ru/mfc/)

Комитет по международным отношениям и реализации миграционной политики в Санкт-Петербурге

8 812 576 28 08  
[info@kmormp.gov.spb.ru](mailto:info@kmormp.gov.spb.ru)  
[gov.spb.ru/gov/otrasl/kmormp/](http://gov.spb.ru/gov/otrasl/kmormp/)

Chet ellik fuqarolar uchun ishonch telefoni:  
8 812 576 28 67

## Foydali saytlar:

[migrussia.ru](http://migrussia.ru) huquqiy masalalar va moslashishga oid maslahatlar, foydali muloqot yo'llari va bir necha tildagi axborot materiallari

[migrantinfo.kmormp.gov.spb.ru](http://migrantinfo.kmormp.gov.spb.ru) Sankt-Peterburgdagi xalqaro munosabatlar va muhojirlik siyosatini amalga oshirish qo'mitasining muhojirlar uchun internet-resursi

Разработка текста: БФ «ПСП-фонд»  
Автор-составитель: Якимов А. Н.  
Редактор: Панич Б. Л.  
Дизайнер: Костенко А. А.  
Тираж: 1500 экз.

Буклет «Трудоустройство и защита трудовых прав» (на узбекском языке)  
Изготовлено на средства субсидии Комитета по международным отношениям и реализации миграционной политики в Санкт-Петербурге



Комитет по международным  
отношениям и реализации  
миграционной политики  
в Санкт-Петербурге



# Sankt-Peterburgga xush kelibsiz!



Mehnat muhojiriga yordam

Hujjatlarni qanday  
to'g'ri rasmiylashtirish  
mumkin?

2022

Agar Sankt-Peterburgga ishslash uchun kelingan bo'lsa, qanday hujatlarni rasmiylashtirish zarur?

Tovlamachilarning qurbaniga aylanmaslik uchun qonuniy hujatlar qerda rasmiylashtiriladi?

Qonuniy hujatlarni rasmiylashtirish va Sankt-Peterburgda ish boshlash uchun bir necha qadam qo'ying:



## 0 QADAM

Agar siz Rossiyada ishlamoqchi bo'lsangiz, mamlakatga kirayotganda muhojirlik kartasida «Kelishdan maqsad» qismida «ISH» so'zini belgilang.

Agar siz (kirishdan boshqa maqsadni) belgilagan bo'lsangiz, lekin ishslashga qaror qilgan bo'lsangiz, unda patent yo mehnat shartnomasi olayotgan paytingizda kelishdan maqsadni o'sgartirish uchun chet ellik fuqarolar ma'lumotlari ro'yxatining yagona bazasida bu boroda Управление по вопросам миграции МВД Россиини xabardor etish zarur.

Faqat 18 yoshga to'lgandan boshlabgina Rossiyada ishslash va patent olish mumkin!

## 1 QADAM

Ixtiyoriy tibbiy sug'urta polisi (ДМС) ni rasmiylashtiring.

(ДМС) polisini sug'urta shirkatlaridorda yoki «Почты России» bo'linmalarida rasmiylashtirish mumkin.

ДМС polisi narxi unda yozilgan tibbiy xizmatlar va amal etishi muddatiga bog'liq bo'ladi. Mehnat muhohirlari uchun eng arzon (ДМС polisi, odatda, davlat poliklinikalari va bemorxonalarida faqat tez va shoshilinch tibbiy yordam olish imkonini beradi.

Mehnat shartnomalari asosida ishlaydigan EOIH a zo-davlatlari fuqarolari davlat tibbiy muassasalarida Rossiya fuqarolari bilan barobar bepul tibbiy yordam olish huquqini beradigan majburiy tibbiy sug'urta polis ДМС lari rasmiylastirishlari mumkin.

## 2 QADAM

Yashydigan joyingiz manzili bo'yicha muhojirlik qaydidan (registratsiyadan) o'ting.

Chet ellik fuqaro Rossiya kelganidan so'ng 7 ish kuni davomida

Tojikiston, O'zbekiston fuqarolari — 15 kunda, EOIH a'zo-davlatlari (Armaniston, Belorus, Qozog'iston, Qirg'iziston) fuqarolari — 30 kunda kelgan erida muhojirlik qaydidan o'tishi shart.

Chet ellik fuqaroni muhojirlik qaydiga qo'yish ishini uni turar-joy bilan ta'minlaydigan qabul qiluvchi tomon amalga oshiradi.

Ular quyidagilar bo'lishi mumkin:

- Sankt-Peterburgda doimiy qaydga olingan RF fuqarosi;
- Sankt-Peterburgda doimiy yashaydigan chet ellik fuqaro;
- Chet ellik fuqaro — turar-joy egasi;
- Huquqiy shaxs: tashkilot — ish beruvchi, mehmonxona.

Muhojirlik qaydiga qo'yish uchun Управления по вопросам миграции ГУ МВД РФ по Санкт-Петербургу и Ленинградской области ning hududiy bo'linmasiga yo davlat xizmatlari ko'rsatish ko'p vazifali markazi (МФЦ)ga, murojaat etish zarur, yoki «Госуслуги» xizmatidan foydalanish mumkin.

Sizga quyidagi hujatlar va ularning nusxalari zarur bo'ladi:

- pasport;
- muhojirlik kartasi;
- ixtiyoriy tibbiy sug'urta polisi;
- Turar-joydan foydalanishni tasdiqlovchi hujat (masalan, turar-joy ijarasi shartnomasi) nusxasi.

## 3 QADAM

Ishslash uchun patent rasmiylashtirishga hujat topshiring (EOIH va Ukraina fuqarolari uchun bu qadamni amalga oshirish shart emas!)

Patent rasmiylashtirish uchun hujat topshirish muddati — RF ga kelgan paytdan 30 kun davomida. Bunga riyo qilmoq zarur, yo'qsa, jarima to'lashga to'g'ri keladi. Patentda ko'rsatilgan ixtisosda emas va boshqa mintaqada ishlaganda ham, jarima to'lashga to'g'ri keladi!

Sankt-Peterburgda patent rasmiylashtirish uchun hujatlarni ФГУП «Паспортно-визовый сервис» МВД России ga topshiring. [spb.pvsmvd.ru](http://spb.pvsmvd.ru)



Patent rasmiylashtirish uchun quyidagilarni yaqdim etmoq zarur:

- patent berish haqida ariza (ariza varaqasi va uni to'ldirish namunasini ГУВМ МВД РФ ning bo'limmalarida yoki [guvm.mvd.ru](http://guvm.mvd.ru) saytidan bepul olish mumkin)
- pasport va pasport nusxasi;
- 3×4 hajmdagi rangli yaltiramaidigan fotosurat;
- muhojirlik qaydiga qo'yish (registratsiya) haqidagi bildiruv va uning nusxasi;
- pasportning notarial tasdiqlangan rus tiliga tarjimasi — tarimon bo'lgan notarial idorada tayorlanadi;
- kelishning «ishslash» maqsadi ko'rsatilgan, kelish haqida shtamp bosilgan muhojirlik kartasi va uning nusxasi;
- tibbiy xulosa va giyohvandlikka mutbalo bo'Imaganligi hamda atrofdagi kishilar uchun xavfli bolgan kasalligi yo'qligi, shuningdek VICH-infeksiyasiga chalinmaganligi borasida sertifikat — maxsus tibbiy muassasada tibbiy ko'rikdan o'tilgandan so'ng rasmiylashtiriladi;
- patent bo'yicha soliq to'lovini (НДФЛ) to'laganlik borasida kvitansiya;
- Rus tilini, Rossiya tarixi va Rossiya Federatsiyasi qonunchiligi asoslarini bilishini tasdiqlovchi hujat: SSSR hududida 01.09.1991 yilgacha yo Rossiya hududida 01.09.1991 yilidan so'ng o'quv yurtini bitirganligi borasidagi hujat asli yoki rus tilini, Rossiya tarixi va Rossiya Federatsiyasi qonunchiligi asoslarini bilishiga oid testdan o'tganligi borasida sertifikat;
- ixtiyoriy tibbiy sug'urta polisi (ДМС)